

Kamilova Gulmira Alimovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
professori

Choriyeva Zebiniso Odilovna
Buxoro shahar 76-maktabgacha ta'lim
tashkiloti direktori

MAKTABGACHA TA'LIMDA EVRISTIK METODLARDAN FOYDALANISH TEKNOLOGIYALARI

***Annotatsiya.** Evristik metodlardan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishda evristik topshiriqlarni didaktik jihatdan to'g'ri tanlash va guruhlash ham muhimdir. Maqolada shu haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Evristik metod, didaktik, evristik topshiriqlar, evristik yondashuv, evristik mashqlar, bilish jarayonlari, texnologik model.*

ТЕХНОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭВРИСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.** При совершенствовании технологий использования эвристических методов важно также правильно отбирать и группировать эвристические задачи с дидактической точки зрения. Именно это обсуждается в статье.*

***Ключевые слова:** Эвристический метод, дидактика, эвристические задачи, эвристический подход, эвристические упражнения, когнитивные процессы, технологическая модель.*

TECHNOLOGIES FOR THE USE OF HEURISTIC TECHNIQUES IN PRESCHOOL EDUCATION

***Annotation.** In improving the technologies of using heuristic methods, it is also important to correctly select and group heuristic tasks from a didactic perspective. This is what the article discusses.*

***Keywords:** Heuristic method, didactic, heuristic tasks, heuristic approach, heuristic exercises, cognitive processes, technological model.*

Evristik ta'lim muhitida ishlash usullari maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun samarali pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu usullarni izchil va tizimli qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining barqaror va kompleks rivojlanishini ta'minlaydi.

Evristik metodlar asosida ishlashning afzalligi shundaki, har bir bola mashg'ulotda o'z darajasida izlanishga kirishadi: kimdir savol beradi, kimdir taxmin qiladi, kimdir tajriba qiladi, kimdir xulosa chiqaradi. Natijada guruhdagi ta'lim jarayoni formal "bir xil" emas, balki subyekt-subyekt munosabatiga tayangan holda individuallashtiriladi.

Evristik metodlardan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishda evristik topshiriqlarni didaktik jihatdan to'g'ri tanlash va guruhlash ham muhimdir. Shu maqsadda evristik faoliyat turlarini quyidagicha tasniflash mumkin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda evristik metodlardan foydalanish pedagogik muammo sifatida quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

evristik yondashuv bolani bilish subyekt sifatida shakllantiradi, biroq amaliyotda uni tizimli texnologiyalashtirish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan;

evristik mashqlarni yosh xususiyatiga mos bosqichma-bosqich tashkil etish, natijani baholash mezonlari va metodik ta'minotini takomillashtirish talab etiladi;

evristik metodlar o'yin, tajriba va muloqot bilan integratsiyada berilganda yuqori natija beradi, shu bois ularni kompleks didaktik tizim sifatida ishlab chiqish zarur.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirish masalasi pedagogika va yosh psixologiyasi doirasida keng tadqiq etilgan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda bilish jarayonlarining (idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq) yosh xususiyatlari, ularning shakllanish va rivojlanish mexanizmlari, shuningdek, ta'lim jarayonida faollashtirishning didaktik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Xususan, L.S. Vigotskiyning "eng yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi g'oyasi bolani tayyor bilim bilan emas, balki yo'naltirilgan pedagogik yordam, hamkorlik va faoliyat jarayonida rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

A.N. Leontev va S.L. Rubinshteyn faoliyat nazariyasi asosida bilish jarayonlari bolaning amaliy harakati, o'yin va muloqoti jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi.

J. Dewey va J. Brunerning muammoli va izlanishga yo'naltirilgan o'qitish konsepsiyalari esa "kashf etish orqali o'rganish"ning pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirish masalasi MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy izlanishlarida ham muhim o'rin egallaydi. Ularning tadqiqotlarida bolalar tafakkuri, idroki, diqqat va nutqining shakllanishida faoliyatga yo'naltirilgan, muammoli va evristik yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari yoritilgan.

Jumladan, L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlarida bilish jarayonlarining rivojlanishi ijtimoiy muhit va hamkorlik faoliyati bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi

Olimning "eng yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bolani tayyor bilim bilan emas, balki yo'naltirilgan savollar, hamkorlik va izlanish orqali rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Ushbu g'oya maktabgacha ta'limda evristik metodlardan foydalanishning nazariy poydevorini tashkil etadi. Xususan, A.N. Leontev faoliyat nazariyasi asosida bilish jarayonlari bolaning predmetli-amaliy faoliyati va o'yin jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida bolalarning tafakkuri va nutqi faol harakatlar orqali rivojlanishi, bu jarayonda pedagogning yo'naltiruvchi roli muhim ekanligi ko'rsatib berilgan.

Taniqli pedagog S.L. Rubinshteyn o'z ilmiy ishlarida tafakkur va bilish jarayonlarini faoliyat bilan bir butun tizim sifatida talqin qiladi. Olim fikricha, bola muammoli vaziyatga duch kelganda tafakkur faollashadi, bu esa evristik metodlarning samaradorligini oshiradi.

D.B. Elkonin va V.V. Davidov tadqiqotlarida maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyatining yetakchi roli asoslab berilgan. Ular o'yin orqali bolalarda bilish jarayonlari, xususan, mantiqiy fikrlash, tasavvur va nutq rivojlanishini ilmiy jihatdan isbotlaganlar. Bu qarashlar evristik metodlarni o'yinli shaklda tashkil etishning metodik asosini kuchaytiradi.

N.A. Menchinskaya va P.Ya. Galperin ishlarida bilish faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi ishlab chiqilgan. P.Ya. Galperinning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi bolalarda bilish jarayonlarini izchil va ongli rivojlantirishda evristik topshiriqlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

V.V. Davidov o'z tadqiqotlarida nazariy tafakkurning shakllanishi uchun muammoli vaziyatlar va izlanishga asoslangan topshiriqlar muhimligini ta'kidlaydi. Olim fikricha, bola bilimni tayyor holda emas, balki muammo yechimi jarayonida egallaganda u chuqur va barqaror bo'ladi.

I.Ya. Lerner va M.N. Skatkin didaktik tadqiqotlarida evristik va muammoli o'qitish metodlarini alohida metodlar guruhi sifatida ajratib ko'rsatgan. Ular evristik metodlarni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida baholaydilar.

N.N. Poddyakov maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy faoliyatni rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan ishlarida bolalarning tabiiy qiziqishi va izlanishga moyilligini qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning izlanishlarida evristik tajribalar va kuzatuvlar bolalar tafakkurining rivojlanishida muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Shuningdek, I.A. Zimnyaya tadqiqotlarida bilish faoliyati va kompetensiyaviy yondashuv masalalari yoritilib, bilish jarayonlarining rivoji shaxsning intellektual va nutqiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq ekani asoslab berilgan.

Mazkur masalalar o'zbek pedagog olimlari tadqiqotlarida ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan, O. Musurmonovanning ilmiy ishlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida mustaqil fikrlash, bilish faolligi va ijodkorlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Olim bilish jarayonlarining rivojlanishini bolalarning faolligi va o'yinli faoliyat bilan bevosita bog'laydi.

G. Maxmutova va M. Axmedjanov tadqiqotlarida tafakkur, idrok va nutqni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar va interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Ularning ishlarida bolani fikrlashga undovchi savollar, izlanishga yo'naltirilgan topshiriqlar muhim metodik vosita sifatida e'tirof etiladi.

N. Yunusova, I. Xushmurodova va G. Abdixodirovalarning ilmiy izlanishlarida bilish faoliyatini faollashtirish, xususan, diqqat va xotirani rivojlantirishda o'yin, tajriba va kuzatuv metodlarining ahamiyati ko'rsatib berilgan. Ushbu tadqiqotlarda bilish jarayonlarining yosh xususiyatlariga mos metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, B. O'razov, D. Shokirova, M. Imomqulova, Q. Nazarovlarning ilmiy ishlarida tafakkur va nutqni rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta'lim, o'yinli va integrativ metodlarning samaradorligi asoslab berilgan. Olimlar bilish jarayonlari rivojida faol ishtirok, muloqot va refleksiyaning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar.

Bundan tashqari, J. Hasanboev, M. Farmonova, N. Ortiqov, Sh. Samiyeva tadqiqotlarida ta'lim jarayonida ijodiy faoliyat, mustaqil izlanish va evristik elementlardan foydalanish bilish jarayonlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy dalillar bilan asoslangan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy izlanishlar tahlili quyidagilarni ko'rsatadiki, evristik metodlardan foydalanish masalasi ko'proq umumiy didaktika, boshlang'ich yoki umumiy o'rta ta'lim kontekstida yoritilgan. Maktabgacha ta'limda evristik metodlarning texnologik modeli, bosqichlari, metodik ta'minoti va natijani baholash mezonlari tizimli tarzda yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli bilish jarayonlari (idrok–diqqat–xotira–tafakkur–nutq)ni evristik metodlar orqali rivojlantirishda yoshga mos metodik mexanizmlar va pedagogik shart-sharoitlarni aniq belgilash zarur.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda evristik metodlardan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy-metodik jihatdan yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, u dolzarb pedagogik muammo sifatida alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

Mavjud izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, evristik metodlardan foydalanish ko'proq umumiy didaktik jihatdan yoritilishi, maktabgacha ta'limda evristik metodlarning texnologik modeli, bosqichlari, metodik ta'minoti va natijani baholash mezonlari tizimli tarzda yetarli darajada ishlab chiqilishi, bilish jarayonlari (idrok–diqqat–xotira–tafakkur–nutq)ni evristik metodlar orqali rivojlantirishda yoshga mos metodik mexanizmlar va pedagogik shart-sharoitlarni aniq belgilash zarur.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda evristik metodlardan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish ilmiy-nazariy va amaliy-metodik jihatdan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Maktabgacha ta'limda evristik metodlar (texnologik) turlari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy evristik metodlar (texnologiyalar) tizimini aks ettiradi. 1.1.2-jadvalda keltirilgan har bir metod bolaning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashga yo'naltirish hamda idrok, tafakkur, xotira, diqqat va nutq jarayonlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limda evristik metodlar (texnologik) turi

1.1.3-jadval

No	Metod (texnologiya) nomi	Qisqa mazmuni
1	Savol-zanjir (yo'naltiruvchi savollar)	“Nima?”, “Nega?”, “Qanday?” ketma-ketligi orqali bolani fikrlashga olib boradi.

2	Muammoli vaziyat texnologiyasi	Bola oldiga amaliy muammo qo'yilib, yechim izlatiladi (tanlash, taqqoslash, asoslash).
3	Faraz (taxmin) texnologiyasi	"Agar ... bo'lsa nima bo'ladi?" savoli asosida taxmin va isbotga undaydi.
4	Tadqiqot-tajriba texnologiyasi	Kuzatish, sinov, tajriba orqali natijani topish va izohlashni tashkil etadi.
5	Taqqoslash-tahlil texnologiyasi	O'xshash/farqli belgilarni ajratish, guruhlash va umumlashtirishni shakllantiradi.
6	Modellashtirish texnologiyasi	Maket, sxema, rasm orqali hodisa/predmet mohiyatini "model"da ko'rsatish.
7	O'yinli evristika	Evristik topshiriqlar syujetli va didaktik o'yinlarda beriladi.
8	Refleksiv yakunlash	Bolaning o'z faoliyatini anglash, baholash va xulosalashini ta'minlaydi.

Savol-zanjir (yo'naltiruvchi savollar) texnologiyasi evristik ta'limning boshlang'ich va asosiy mexanizmi hisoblanadi. "Nima?", "Nega?", "Qanday?" kabi savollarning ketma-ketligi bolaning tafakkurini faollashtiradi, uni sabab-oqibat aloqalarini tushunishga va fikrini izchil bayon qilishga olib boradi. Ushbu metod bolalarda nutqiy faollik va mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Muammoli vaziyat texnologiyasi bolaning amaliy faoliyatiga tayanadi. Tarbiyachi bola oldiga kundalik hayotga yaqin muammo qo'yadi va uni mustaqil hal etishga undaydi. Bola tanlaydi, taqqoslaydi, asoslaydi va xulosa chiqaradi. Bu metod ijodiy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish va bilishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Faraz (taxmin) texnologiyasi bolani bashorat qilish va mantiqiy xulosa chiqarishga o'rgatadi. "Agar ... bo'lsa nima bo'ladi?" savoli asosida bola taxmin ilgari suradi va uni asoslashga harakat qiladi. Natijada tafakkurning moslashuvchanligi, sabab-oqibatni anglash hamda nutqiy mantiq rivojlanadi.

Tadqiqot-tajriba texnologiyasi kuzatish, sinov va oddiy tajribalar orqali bilimni "kashf etish"ga asoslanadi. Bola o'zi kuzatadi, solishtiradi, natijani aniqlaydi va izohlaydi. Ushbu metod ilmiy qiziqish, kuzatuvchanlik va analitik fikrlashning dastlabki ko'nikmalarini shakllantiradi.

Taqqoslash-tahlil texnologiyasi predmet va hodisalarning o'xshash va farqli belgilarini aniqlashga qaratilgan. Bola guruhlaydi, tasniflaydi va umumlashtiradi. Bu metod mantiqiy tafakkur, umumlashtirish va tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Modellashtirish texnologiyasi bilish jarayonlarini vizual-amaliy shaklda tashkil etadi. Maket, sxema, rasm va konstruktorlar yordamida bola hodisa yoki predmetning soddalashtirilgan modelini yaratadi. Ushbu metod abstrakt tushunchalarni anglashni yengillashtiradi hamda fazoviy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

O'yinli evristika maktabgacha yosh davrining yetakchi faoliyati bo'lgan o'yinga asoslanadi. Evristik topshiriqlar syujetli va didaktik o'yinlar orqali berilib, bolani qiziqtirgan holda muammoni hal etishga undaydi. Bu metod emotsional qulaylikni ta'minlaydi va ijodkorlikni kuchaytiradi.

Refleksiv yakunlash evristik faoliyatning mantiqiy yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Bola o'z faoliyatini anglaydi, natijani baholaydi va xulosa chiqaradi. Ushbu metod o'z-o'zini baholash, ongli o'rganish va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan evristik metodlar maktabgacha ta'lim jarayonida bilish faoliyatini faollashtiruvchi, izlanishga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar sifatida namoyon bo'ladi. Ularni tizimli va bosqichma-bosqich qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining samarali va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishning samaradorligi ta'lim jarayonida bolaning faolligi, qiziqishi va mustaqil fikrlash imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. Evristik metodlar bolani tayyor bilim iste'molchisi emas, balki bilimni "kashf etuvchi" subyekt sifatida shakllantiradi. Ushbu yondashuv idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq

224 kabi bilish jarayonlarini izlanish, muammoli vaziyat, tajriba-kuzatuv, taqqoslash hamda refleksiya orqali kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, evristik metodlardan foydalanish amaliyotida texnologik izchillik, metodik ta'minot va baholash mezonlarining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi mazkur masalani pedagogik muammo sifatida dolzarbligini namoyon qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, evristik metodlardan foydalanish jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun ularni maktabgacha ta'lim mazmuni, o'yin faoliyati va yosh xususiyatlari bilan uyg'unlashtirgan holda pedagogik shart-sharoitlar, bosqichlar hamda metodik vositalar tizimini ilmiy asoslash zarur. Keyingi paragrafda evristik metodlarni amaliyotga tatbiq etishning didaktik imkoniyatlari, ularning texnologik bosqichlari hamda bilish jarayonlari rivojiga ta'sir ko'rsatadigan omillar tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.(UNESCO, UNICEF, World Bank. MELQO: Measuring Early Learning Quality and Outcomes. – Washington, 2017.)
2. (UNICEF. Early Childhood Development and Learning Outcomes. – New York, 2019.)
3. (UNICEF. Early Childhood Development and Learning Outcomes. – New York, 2019.)
4. “ Ilk qadam ” davlat o'quv dasturi. Toshkent 2022 y
- 5.O'zbekiston Respublikasida Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent.2018 y